

Hech kim yo'q, hamma ketgan. Yunon maqoli

Vokzalga yetib kelganimda baland-baland binonlarni tuman chulg'ab olgan "Toshkent" B degan yozuv chiroqlari hira porlardi. Shimoliy poezdning jo'nashi endi e'lon qilinayotgan ekan. Katta maydonda odamlar yugurishar, yosh er-xotin jamadonlarini ko'tarolmay sudrashar, sayohatga chiqqan bir to'p talabami, maktab bolasi shahdam qadam tashlab vagon eshiklariga singib ketishardi. Sport kiyim kiygan o'rta yashar qop-qora erkak, kabobpazning qo'lidan kaboblarni yo'lqib olib poezd tomon chopadi. Burnimga olovda pishgan go'shtning yoqimli xidi uriladi. Og'zimdagi so'lak paydo bo'lib, jag'larim og'rib ketadi. Aftimni burishtirganimcha poezdning boshiga qarab yurib ketaman. "Shimoliy poezd birinchi yo'ldan jo'naydi". Yoqasiga temir yo'l belgisi qadalgan xizmat kiyimidagi nazoratchilar ola-bula tayoqlarini silkiganicha kechikayotgan olomonga norozi tikilishardi. Eshigiga 5 raqami yozilgan vagonning oldiga borib to'htadim. Kichik maydonchada patta tekshirayotgan nazortchiga ikki qo'limni ko'ksimga qo'yib hiyol jilmydim. "Xudo, xayringizni bersin, olib keting". U zamonaviy qimmatbaho kiyimlarim va kelishgan qaddi-qomatimga bir qo'r ko'z tashlab, kattakon oynavand eshikka havotir bilan qarab oldida, B "tez chiqing" dedi. Vagonning qizil gilam tashlagan yo'laklari, oynasidagi ohorli pardalari odamga allaqanday osudalik va ishonch bag'ishlardi. 2 raqamli kupeda bo'ylari baland, to'ladan kelgan er xotin va xuddi o'zlarig'ahshagan baqaloq bolakay o'tirishardi. Erkak xursand bo'lib, darrov joy ko'rsatdi. Xotining yuzlarida avval qandaydir sarosima, so'ng sovuq tuyg'uning soyasi ko'rindi. U e'tibor bermayotganligini ko'rsatish maqsadida, bolasini yechintira boshladi.

- Kel-chi. . mo'-mo',- ayol besh olti yashar bolakayning qip-qizil yanoqlaridan o'pib qo'yardi.

- Yo'q, yo'q, buni kiyamayman, bu qizlarniki... - derdi oyog'ini tapillatib bola.

- Qaysini kiyasan unda bolam... mana bu chavandozlinimi?.

- Pauklisini. . pauklisini. . -, - derdi bolakay sakrab. - Chelovek pauk.

- Istaganini kigizsang-chi, bolani qiynamasdan, - deb bolasini harhashasidan hijolat bo'lib gapga qo'shiladi semiz erkak.

- Ha. . pauklisi o'lsin buni, yuvib qo'ysam, ho'l holida kiyib ketadi. Jo'ralari zo'r, devorda o'rmlaydigan odamning rasmi shu deganmish.

- Qayoqqa yurdingiz, singlim, - deydi semiz xotining og'zi shaloqligidan og'ringanday yumshoq ohangda.

- Nukusga, - deymen gapirgan sari og'riyotgan jag'imni ushlab.

- Tishingiz og'riyaptimi, - deydi baqaloq mehribonlik bilan.

Oynalaridan poezd g'ildaraklarining taraqturug'i va diktorning "Toshkent-Nukus" poezdi birinchi yo'ldan jo'nab ketyapti, degan ovozi kiradi. Xudoga shukur, odamlar o'rtnashib olganidan so'ng yuqoriga chiqaman. - Ha. . umuman. .

- Bolani ushlab o'tiring, narsalarni joylashtiray, - deydi baqaloqning semiz xotini o'rindiqda o'ynab o'tirgan bolani "po'p" etib, erining tizasiga qo'yadi. Bu begona xotinga mehribonchilikning oqibati edi.

- Shamollatgan bo'lsangiz kerak, yo tishingizni oldirdingizmi, - deydi hira baqaloq.

Vagon derzasidan sirpanib o'tayotgan ko'pqavatli uylar va son-sanoqsiz simyog'ochlarga tikilib boshimni liqillataman. Yo'lakda poezd radiosining qitirlagan sasi eshitiladi. "Somsalar bora".

- Issiq saqlash kerak, - baqaloq yana allaqanday ichki bir og'riq bilan uzun qora sochlaringa qarab qo'yadi.

- Mana bularni ushlab o'tiring, - xotin yana ikkita katta tugunni erining tizasiga qo'yadi.

- Ey, qo'yasanmi, yo'qmi... ol bolangniyam. . Bulkaday qizil bolakay qo'rqib yig'lab yuboradi.

- Nima qildim men sizga. .

Kupe eshigini asta surib, yo'lakka chiqaman. "Balo qilding". Ikkita yosh qiz tanburga yaqin turgan erkaklarga muqom qilardi. O'zimning aksim tushayotgan oynaga tikilib turdim. B "Taraqa-turuq" etib ketayotgan poezd oppoq borliqni ikkiga ayirib olg'a intilardi. Qor qoplagan uylar, tomlar, ko'chalar orqada qolardi. Odamlar mashinada va piyoda kechki tirikchilik tashvishida g'imirlab yurishardi. Shovqin sur'on bilan o'tib ketayotgan poezdga qarashmaydi ham, o'rganishib ketishgan. Biz esa ketib borardik.

- Ha, qizi nega bu yerda turibsiz?, - dedi vagon eshigidan kirib kelayotgan yoshi oltmishlarga borib qolgan nazoratchi Olim.

- Boshqa joy yo'qmikan, xotin erini rashk qilayapti...

- Onasini uyida rashk qiladi bu poezd, jamoatchilik joyi. .

- To'g'ri, lekin juda charcha... - so'zlarni iloji boricha yutib qolardim. - Ozroq dam. .

Butun vujudim og'riqdan tirishib qolganga o'hshardi. Olim qora sport do'ppisini ko'tarib sochini "kirtillatib" turdi.

- Tushundim. Himm. Ko'raychi. .

Ko'p o'tmay nazoratchining salqigan yuzi ko'rindi. Yana radio qitirladi.

- Hali yoshsiz-ku... qaytanga zerikmaysiz. . - derdi u ming'irlab o'ziga taskin berayotganday.

3 raqamli kupening eshigi ochilishi bilan burnimga gup etib, atir va yana allaqanday g'alati hidlar urildi. O'ng tomonda boshini ro'mol biln tang'ib olgan ikkita qiz qotib yotishardi. Eshikni ochganimizni ham bilishmadi. Yuqorida sochini sariqqa bo'yab olgan yigitcha qulog'iga eshitgichlarni tiqib, oyoqlarini likillatib yotardi.

- Ha, yoshlar, yoshlar. . -, - dedi Olim aka bosh chayqab.

- O'zgina, shu yerda yotsam bo'larmikan, - deymen Tish orasida gapirib.

- Nafaqat yotasiz, uhlab ham olsangiz bo'ladi kechki ovqatgacha... Bular, - tepaga ishora qilib. - pastni xush ko'rishmaydi.

Ko'zimni yumishim bilan qotib qolibman. Vagon "taqa-tuq"i allalardi. Miyanning mudrayotgan qavatlarida og'riqli hayollar suzib yurardi. "Endi qayoqqa boradi. Ota-onasi allaqachon dunyodan o'tib ketgan. Kenja ukasi xotini bilan o'sha mulkni ilonday qoravullaydi. Bitta singlisi Gulnora - telba. Kelgan ketganni bilmaydi ham. Ukasini tovug'ini, qo'ylarini boqadi. Endi u yerga ota-onasi yodi uchun boradi. Unikida uch kun turar, bir hafta, so'ng qayoqqa boradi. O'zi qayoqqa boryapti?. Kimdan qochib?. Yana azobli o'ylarni o'ylagisi kelmasdi. Hayotida dahshatli hodisa sodir bo'ldi... Tushida kimdir, yosh bolami "oh,ohh" derdi.

Mudrayotgan olam qarida tebranayotgan narsa va yolg'iz o'zi qolganday bo'ldi. Yolg'izlik naqadar yomon. Nima keragi bor hammasini, bolalarini ham. O'zi hech kim qech kimga kerak emas ekan?. Bira to'la hammasidan qutulsa-chi?. Olislarda nimadir "taqillardi". Hamisha qulog'iga taqillayotgan eshik ovozi kelardi. Ovoz tobora kuchayardi. Qarong'i olamlarda sirg'ana-sirg'ana arang ko'zini ochdi. Kupe eshigi taqillayotgan ekan. Oynadan "... giyo'l" degan bekatning yozuviB "lip" etib o'tib ketdi. Eshik ochilishi bilan turli-tuman basharalar, shovqin-sur'on solib kirib kelishdi.

- Voy, bular hali to'yishmabdi, - to'da kirib bemalol pastki o'rindiqlarga o'rtnashib oldi. Shundagina qarshimda yotgan ro'mollilarning birini erkak ekanligini angladim. Ularning ikkalasining ham ishtoni yo'q edi.

To'da allaqanday yegulik kovshonar, kimlaridir pivo ichar, yana boshqasining ko'zlari, bu yerga adashib kirgan o'g'rnikii day

"alang-jalang" edi.

- Kisa, syuda, zo'r narsa bor,- dedi yuqoridagi malla soch, sil kasaliga uchragan odamday rangpar yigitga.

- Nu, hvatit, turinglar, kovshanamiz.

Yelim haltaning shildirashi va shishalarning bir-biriga urilishi eshitildi. Juda kuchli xorijiy musiqa yangradi. Sariqsoch mushukday pastga sakradi-da, irg'ishlay ketdi. "nu,nu Xo'jik, davay". Xo'jik borgan sari jazavaga tushib misoli echkiday sakrardi. "Kto ona takaya". "Eto. Sosedka nasha". "Staruxa, pasajirka". Shu mahal yuqorida birov " qaq-qah" otib kuldi. Tahtalar silkinib ketdi.B "Vse, opyat peredozirovka".

- Ma, ich, yana qorani sifatsizidan olgansan. - ko'z oynak taqqan yigit yuqoriga choymi, mineral suv uzatdi.

- Namuncha hasissan, shu shipritsdan ikkinchi kun urvotsan. Giegena degan narsani bilasanmi?.

- O'zbekcha psixologiya.

- Radik, nima dedim man sanga, yig'ishtir ukol, pukollaringni. Paxaningga aytib beraman.

- Otstan-a, hammasini chizib qo'rganman - pastga qonga belangan isqirt shprints tushdi.

Miyam aylana boshladi, kupe havosi og'irlashadi. "To'htat, to'htat, iflos".

- Og'zigizga qarab gapiring mamasha.

- Man sani onang tengi bo'laman. Onangni hurmat qilasanmi o'zi?. Bu yerda odam yotibdi deb o'ylamaysizlarmi?.

- Ja, jonga tegdi shunaqa "natatssiyalar". Qachon qutularkanmiz shulardan.

- Uyda shu gap, ko'chada shu gap. "Kattalarga gap qaytarma... ular nohaq bo'lsa ham-a".

- Hatto poezdda. Mi ne dumaem tolko kataemsa.

- Qoch, qoch chiqib ketaman.

- Hali ham ushlab qolayotganimiz yo'q hola.

- nam staruxi nenujno.

- Bizga pulli bor yosh qizlar kerak.

- Senlarni ham bolalaring shunday qaqshatsin.

- Unas deti ne budet. Tolko seks. Tolko udovletvorenie.

Ichkaridan otilib chiqib, birov quvganday yo'lakning ohiriga chopdim. Hasirab nafas olardim. Kupedan qattiq kulgi eshitildi. U yerda ko'rganlarimni hazm qilolmasdim. Balki tushga o'hshardi. Poezd tuya o'rkachiday oqarib yotgan qirlar, adirlar, olis-olislarda qaqqayib turgan temir minoralarning, shamolda uchib yurgan tussiz yontoq, yelim hatalarning yonidan vashat solib o'tib borardi. "Yer yuzi qanchalar keng". Qo'shni xonadan yaxshi yashashi afti-angoridan bilinib turgan o'ttizlaridan oshgan bir yigit chiqdi-da, tanishini ko'rganday jilmaydi.

- Siz Sabohat Kamolmi?.

Ko'zlarimni bir oz qisganimcha notanish qo'shningga tikilardim. Shu lahzada na biron odam bilan tanishish, na gapirish istagi bor edi. Dunyo, hayot jonimga tekkan edi. 3 chi kupedagi yoshlar kayfiyatimga juda qattiq ta'sir qilgan, ular notanish, birovning bolasi bo'lsa-da, kufrimni qo'zitardi. Har xil joylarda seminar,uchrashuv o'tkazib yuraveribman. Dunyo o'zgarib ketibdi.

- Ayol va erkak psixologiyasi haqidagi kitobingizni o'qiganman. Sizga rahmat aytadigan va bahslashadigan ham joylari bor ekan.

Jag'imni ushlab boshimni chayqadim. "Xudo xayringni bersin, faqat bahslashma. .B".

Poezd sekinlab kelib to'htadi. Vagonlarning eshigi ochilib yo'lbonning yupungina kiyingan yordamchilari paqir olib pastga tushishdi. Qor bosib yotgan do'nglikni kurab-kurab ko'mir olishdi. Ko'mir qorning yonida yanada qoraroq ko'rinardi. To'satdan poezd yurib ketib, yordamchilar qolib ketsaya... Bechoraning holi ne kecharkan?. Poezd yurmadi, nazoratchi qolmadi ham. U bir paqir ko'mir bilan vagonga sakrab chiqdi. Aftidan u bu ishini yillar davomida qilib yurganga o'hshardi. Ko'p o'tmay "Darg'onota" degan bekat asta-sekin orqada qola boshladi. Bekat qorli sahroning o'rtasida joylashgani uchun unda inson zoti ko'rinmas, o'zi uni bu yerga qurishgan ekan degan o'ylar bordim. Vagon uzra qachonlardir dunyodan o'tib ketgan Otajon Xudoyshekurov degan mashxur xofizning qo'shig'i yangradi.

"Tushsa hamki bog'larga kuzak,

Oralasa sochlarimga oq,

Eshigingdan o'tarman bir kun,

Eshigingdan o'tarma bir kun. "

Nahotki, bunday klassik musiqalar yangraydi bu yerda deya o'yladim, asta uchinchi raqamga ko'z tashlab.

- Xo'sh, yana nima bo'ldi? - dedi Olim salqi yuzlarini yaqinroq olib kelib.

- U yerda na faqat uhlash, hatto nafas olib bo'lmaydi.

- Yana bir joy bor, o'zingiz tengi ayollar. . Lekin sizga to'g'ri kelmaydi. Hozir bekat nozirlariga xizmat qilishyapti.

- Qanaqa xizmat?.

Olimning ko'p narsani ko'rgan ko'zlari jimgina tikilib turdi. Asta yurib ketarkan o'z-o'ziga gapirganday "seni zamonaviy xotin"B deb o'ylabman.B "Zamonaviylik deganda nimani tushunadi, zamonaviylik hamma fahsh va buzg'unchiliklarga bosh qo'shishmi?. Vagonlarni tortib yuradigan elektovozning asbob uskunalarida magnit ko'p deyishadi. Bu cholning poezdda yuraverib boshqa a'zolariga qo'shilib miyasi ham magnitlanib qolganga o'hshaydi.

Hali ham erkak va ayol munosabati to'g'risida javobimni kutib turgan faravon qo'shningga qo'limni ko'ksimga qo'yib imo qildim.

"Rahmat". Sumkamdan tezgina bloknot oldim va o'ylanib qoldi.B "Olim aka, jahlingiz chiqmasin. Ko'p gapimrolmayman.

Yaqinda baxtsizlik yuz berib jag'imdan operatsiya bo'lgan edim. Narkoz olganman. Shovqin-sur'on yoqmaydi. O'zimning ham shular tengi ikkita o'g'lim bor. Ular ham tunu-kun ko'chadan beri kelishmaydi. Nahot ular ham boshqa bir joyda menga o'hshagan bir ayolni behurmat qilishadi deb qo'rqib ketdim. Hali chiqqanimda yo'l pulini kissangizga solib qo'ygandim. Aytishga uyaldim. Meni kechirasiz. Men katta dargohda ishlaydigan juda obro'li odamman". So'nggi gaplarim o'zimga yoqmay o'chirib tashladim. Obro'limanmi, obro'sizmanmi, kattami, kichikmi, poezdda oddiy yo'lovman-da.

Ko'peda mashmasha qilaverib Olimnig ham joniga tegdim chog'i, u bir tog'ora to'g'ralgan savzini yordamchisiga berib nima haqidadir uzoq gaplashdi. Imlab chaqirdim-da xatchani berdim. Uning charchagan yuzida ajablanish paydo bo'lib ajinlari yanada quyuqlashdi. Yana derazadan u qorli dunyoni kuzata boshladim. Yana yakkam-dukkam binolar, tashlandiq qo'ralar cho'zila-cho'zila o'tib ketadi. Kupeda tinchgina o'tirib, bir xildagi oppoq manzarani kuzatsang, tashqari necha darajada sovuq ekan.

Quyoshning so'nggi nurlarida qaqqaygan yolg'iz uylar, temir yo'l svetaforlari ko'rinadi. Uylarning oldida allaqanday ro'dapo kiyim kiygan erkak va ayolning qorasi ko'rinishi bilan ko'zdan yo'qolardi. Olis-olislarda qor quyunlariing ortida "Konimex"B degan

so'zlar arang ko'zg tashlanadi. Moviy yaltiroqlik ko'rinadi. Suv bo'lsa kerak. Qaysi ko'l bo'ldi ekan?. Hech qaysisi Orolga yetmaydi. Ey, xudoyim shunday sharoitlarda ham odamlar yashaydi. Yana qo'shiq qulog'imga kirdi. B "Ul sevar yordan ayrildim. Ko'zlari dildordan ayrildim".

- O'zingiz ham juda injiq ekansiz. Hozir uhlash mumkin bo'lgan joyga olib boraman. Yo sizni anovi 9 chiga olib borsammikan?.

- Kim bor o'zi u yerda?.

- Yo'q, u yer sizga to'g'ri kelmaydi. Boshda ham aytvudim buni sizga.

5 raqamli eshikka kirganimizda kupening ichi allaqanday ovqatlarning xidga to'lgan edi. To'rda kupeni to'ldirganicha do'ppili, semiz odam kichik taom stolining qarshisida o'tirar, ho'rillab choy ichar, qahraton qish bo'lsa-da peshonasidan terlar oqardi.

Shunda xonaning ichidan ter va yana dori-darmonning ham isi kelayotganini angladim.

- Mana sizbop joy. Bu kishi qori domlamiz. Xotinlarining mazasi yo'q Toshkentdan olib kelyaptilar.

Shundagina qorining ortida yuzlari mumday oqargan qari ayolning bir burda bo'lib yotganini ko'rdim. Ayolning ustiga yupqagina choyshab yopilgan edi.

- Yangamning mazasi yo'q ekan. Nega ko'rpa olmadingiz?. Yo yana bir odyal beraylikmi? - dedi yo'llarda ko'p yuraverib diydasi qotib ketgan Olim ham iyib va ko'nglimni sezganday.

- Kelinglar. Kuchik-puchugingiz yo'qmi?, - dedi dabdurstdan qori huzur qilib choy simirib.

- Qanaqa kuchuk, poezdda kuchuk nima qiladi?.

U og'ir qo'zg'olib oldidagi sal kam bir tog'ora suyakka ishora etdi. Men qo'rqa-pisa kasalni kuzatardim. Eri bosib-yanchib qo'ymasa edi.

- Behuda isrof bo'lyapti? - dedi uzun kekirib.

- Suyaklar isrof bo'lmasin desak. Poezdni it bosib ketardi. Bu singlim sizlar Bilan Nukusgacha ketadi.

Qori choyni stolning ostiga sepib yubordi-da, semiz qo'lini tantanavor holda duoga ochdi. Go'yo biz yo'qmiz. "Ovmin, ollohu akba. . aar". . ohirgi akbaar so'zi xudo haqqi yana kekirishga o'hshab ketdi.

- O'tiring. Endi. . ayollar uchun fотиhamni yoki namozimni buzolmayman. Mana shu elti. . shu qishlog'imizda mullaning xotinini shunday deydi. Xullas u ham beshinchi o'g'lim Husayinni tuqqanda mashinada tug'ib qoldi. Bamdodni o'qidim dardi boshlandi.

Huftonni o'qidim yana dard tutadi. Dod-voy ko'taradi. So'ng eshikni yopib qo'ydim, u esa ataylab qilganday yo'lda tug'ib oldi. Ollohning farzini xotinimni dard tutsa ham buzolmayman-da.

Kasal huddi shu gaplarni eshitayotganday, bezovta bo'lib tamog'ining qaeqidadir "qiqir-qiqir" degan sas chiqarardi.

- Bo'пти, joylashavering, - dedi Olim allanarsani yoqtirmay chiqib ketdi.

- . . . endi nomozni buzaman desang, hamisha bahona topiladi. Mening shunday odatim bor, nomozminamozelti ustimni yopmanglar. Ichim yonyapti deydi.

Shu mAhal nimadir "tirr. . rrr"B degan sas chiqardi. QoriB " astofurullo. . astofurullo. .B ". Qaysi bekat ekan bu?. Gazlimikan?.

Yo'q, hali Gaziliga uzoq. . - singil aybga qo'shmaysiz gemaroy bo'lganman. Operatsiyadan so'ng shunday yel chiqadigan bo'lib qolgan. Dabdurstdan qimirlasam chiqadi, ketadi. Jamoat joyda uyalasan ham kishi. Tahorat ham buziladi. Buning ustiga saxarman, tez-tez yeyishim kerak. Ilgarilari elti ich kiyimlarimi har kun yuvib yurardi. Endi kuchi qolmadi. Kelinlarga aytishga odam uyaladi. Ulamolar sizning issiq sovug'ingizga qaraydigan yoshroq juvon kerak deydi.

Qorining yoqli yuziga yarashiqsiz kulgi yoyiladi.

- Siz bahuzur. . bahuzur. . - uyalganday.

Kampir qimir etmaydi, o'lib netib qolmadimikan deb ko'z tashlayman. Agar ajali yetmasa ham bu yerning buzuq havosidan bug'ilib o'lishi mumkin. Qori imillab-simillab,"astofurullo"ni ayta-ayta tahoratini yangilashga chiqib ketadi. Garang bo'lib o'tirardim. Eshikni lang ochib qo'yaman, yo'lakdan toza havo va musiqa sasi kiradi. Yelkasiga, boshiga rangdor o'yinchoqlar osib olgan odam har bir kupega mo'ralaydi. "O'yinchoq, o'yinchoqlar". "Nari ket qo'rg'iroqchi hayotimiz o'yinchoq". Qoriing ulkan gavdasi musiqani ham to'sib turgan ekan. Farovon qo'shnim eshikdan mo'ralab o'tadi. Kampir tosh qotganday chayqaladi. Apil-tapil ustki kiyimimini almashtirib, yuqoriga tirmashdim. Baqaloqqa Rahmim kelganidan emas, u kechasi kampirni yanchib qo'ymasin deb qo'rqdim. Domla o'lsa ham ikkinchi o'rindiqqa tirmashmasdi. Ko'zlarimni yumdim, vujudim va qattiq og'riyotgan boshim bir rohat tuydi. Ovul. . ko'lga qachon yetaman?. Yo'lakdanB "issiq ovqatlar bor" degan sas eshitildi. Bir mahal ro'paramda Odil qorining boshi paydo bo'ldi.

- Yotdingizmi?.

Birdan nigohlarimiz to'qnashdi, Sarg'ish qorachuqlarda odamni cho'chitadigan, allaqanday bo'shliq bor edi. Ichimda nimadir "shuvv" etib ketdi. Shopa-pisha:

- enamga nima- imshora Bilan qotib yotgan xotinini ko'rsadim.

- ha eltimi. . Bilmayman tupa-tuzuk yurgan edi. O'z oyog'i Bilan Toshkentga bordi. Orif o'g'limiznikiga, o'zi ham kelini ham doktor. Elti Toshkentga kelmasidan oldin qishloqda ikki uch oy yotib qolgan edi, - u pishillab Yana o'rindiqqa cho'kdi. Bechora kasal ayolning Yana yuzi ko'rinmay qoldi.

- O'shanda Orifni sog'inib rosa ichikdi. Menga telefon qilib chaqiring. Orifni ko'rmay o'lsam armonda ketaman dedi. Endi ishlik odamni bir tumov bo'lganga ham chaqiradimi. . Qo'ng'iroq qilmadim, qilsam ham kelolmas ekan. Chet elga ketgan ekan. Shunga o'zi kelib edi. Sayohatdan oldin sovuqda non yopishdi. Tovuuq so'yib tozalashdi. O'shatda shamollagan shekilli yotib qoldi.

- O'g'lingiz?... - deb Yana iyagimni cho'zdim.

- Ha, ular biz borgan kunning ertasi bolalarini bilan Chimyonga bir haftaga ketishdi. Qog'oz olib qo'yishgan ekan. Elti shu kuni yotib qoldi. Kechasi bilan yig'lab chiqdi. Qo'y kampir, bular ko'z yoshingga arzimaydi, dedim. Yig'layverdi, Xotin-da Nervichit qilganidan oyog'ida og'riqlar qo'zg'olib, devordagi isitgichga uqalayverdi. Yarim kechada kelin kelib, isitgichni tepmay yotinglar"B deb ketdi. So'ng u ko'rpaning ostidan bir og'iz gap aytdi: "Toshkentdagi Orif boshqa ekan" dedi. "Imm". Bunday kekiradi bu odam, deb o'yladim. Ichida havo ham qolmagandir har yog'idan yel chiqaverib. "Toshkentdagi Orif boshqa ekan" deb takrorladim. Miyamda turli o'ylar aralash-quralash edi. Derazadan qarasam, allaqachon qarong'i tushgan, poezd goh chiroqlar "g'uj", goh qarong'i joylardan yelib borardi. Nega Dunyo shunday adolatsiz tuzilgan. Kampirning Orifday nodon o'g'li bo'lguncha menday qizi bo'lsa yaxshimasdimi?. Nega shunda ekan?. Yoki mening ota-onam vafot etmagan bo'lganda, Gulnora kasal bo'lmaganida, qanday soz bo'lardi?. Nosoz Dunyo Miyamning allaqaysi qavatlar uyquga ketardi. Erimning o'ynashi. . jingalak sochlari. . janjal. . jag'imga musht tushganierimning jahldan olaygan ko'zlari. . So'ng operatsiya yigirma bir kun jag'larimni tikib qo'yishganio'g'illarim. . Men qochib ketgan kasalxona darvozasi ko'z oldimda aylanar. Bir xil o'y va fikrlar uhlayotgan miyam

qavatlarini ochib takror-takror kirib kelaverishardi. Nima keragi bor. Chekil ey qora fikrlar. Men hali uzoq yashayman. Chala yarim uhlayman. Poezd to'htaydi. Kupelar eshigi ochilib yopilib odamlar tushib chiqadi. Yo'lakda yo'g'on ovozli bir gado: sadaqa qiling yahshilar deb o'tadi. Bu yerda yaxshining o'zi yo'q, hammasi eshigini berkitib yotgan yomonlar. Nafas ololmayman, bug'ilaman. Nahot erim yetib kelib, "qayoqqa qochasan j. . " deb bo'g'a boshladi. Qulog'imga ". . qiqir-qiqir", tikuv mashinasining "shig'-shig'"day degan saslar kiradi. Kofe qaynatgich. Kofe ichaman. "Tir. . tir-tirr". . Birdan ko'zlarim ochilib ketadi. Ko'p o'tmay poezda ekanimni anglayman. Hira yorug'likda kampirning yuzi endi Sarg'ish kulrang bo'lib ko'rinadi. U go'yo jon berayotganday dag'-dag' titrar, juda katta, yaltiroq ko'zli har zamon ochilib, allaqanday shivir eshitiladi. O'rindig'imning qoq ostida yotgan qorining Yana kasal yel chiqargichi ishga tushgan, poezd chayqalishiga monand "tirrilash" kuchayardi. Nazarimda kampirga havo yetishmasdan bug'ilib o'layozgan edi. Kupe isigan va sasib-bijg'ib ketgan edi. Bir tog'ora go'sht zaharli gazga aylanib, zaharli og'uda kampir ikkalamiz jon berayotgan Edik. Sakrab pastga tushdim bor kuchim Bilan eshini tortdim. Yo'lakda po'sib o'tirgan toza havo bostirib kirdi. Zaharli havoga o'rgangan kampirning o'pkasi tobora kuchli qiqirlar va g'ichirlardi. Asta boshini ko'tarib bir piyola suv tutdim. Ichimdan ko'tarilib chiqayotgan o'kiriklarni zo'rg'a bosib turardim. U go'dakday tamshana-tamshana yutimib tinchigaday bo'ldi. Tualetga zo'rg'a yetib oldim, "o'o'. . O'o'" ichak-chavag'im ag'darilar darajada qayt qilardim. Ishtonim ham ho'l bo'ldi. "O'o'. . O'o'". Nazarimda ichimda Biron a'zo OMON qolmadi. Hammasini qayt etib yubordim. " Onajon. Voh jonim, ona. . ". Kimdir boshimni ushladi.B "O'. . O'o'. .B". Boshimni ko'tarib qarasam Oliming uyqusiragan yuzi ko'rindi.

- Nima bo'ldi senga qizim?

Qo'lim Bilan ishora qildim. "Sasib ketdi".

- Ko'rdim, eshikni ham ochib ketibsan. Kampir bechora kasal shamollab qolmasa edi.

Olim meni yo'lakdagi stulga o'tirg'izib qo'ydi.

- Nima qilsam ekan sani. Bu yerlarda senga sira joy yo'q. Hech qayer to'g'ri kelmaydi.

Olim uyquli ko'larini uqalab, hira yoriyotgan yo'lakka, shamolda uchayotgan pardalarga qarab chayqalib turdi.

- Uhlab tursang bo'ldi-da seni. . unda hozir, - o'zi yotadigan kupe tomonga ildam yurib ketdi. Derazalar sovuq yaltirar edi.

Tashqari zim-ziyo qarong'i, onda sonda olislarda chiroqlar yilt etib o'tib ketardi. Dunyo chayqalardi.

- Ke manavi yerda yot. Bir oqshom ming oqshom emas. Ertalab o'zim uyg'otaman. Bular uhlab qolishgan, hozir derazani yelim pardasini tortaman. Har safar Darg'onota bekatida sindirishadi. Yana aynan shu oynaniTovba qildim. Bu yer eng so'nggi ko'pe bo'lgani uchun sovuq. O'ranib yot, anna shunday. Chiroqni yoqib yurma.

Olim mehribon otaday sovuqdan dildirayotgan tanamni va oyoqlarimni o'rab qo'ydi. Poezd to'htab odamlarning vag'ir-vug'uri eshitildi. Boshimni ko'tarib qaradim, oynada hech narsa ko'rinmasdi. Nazarimda noma'lum bekatda to'htagan edik. To'g'risi, hozir bularning sira ahamiyati yo'q edi. Qavoqlarim tosh osilganday yumilib ketayotgan edi. Og'zi burnimda bug' ko'tarilardi, boshimni ko'rpaga o'rab oldim. "Bu yerdagilar jinni bo'lgan bo'lsa kerak. Shu qahratonda ham singan oyna Bilan yuradimi?. Kun bo'yi charchab bir dam oladigan joy topolmaganim uchun darov toshdek qotib qoldim. Bir mAHal tushimmmi, o'ngimmi ko'peda birovlar, yurar, gapirar, "boshim. . qo'lim qani. . akula. . akula. . " degan gaplar qulog'imga kirganday bo'ldim. Ko'zimni ochishim Bilan aylanib yurgan sharpalar zim-ziyo bo'lib qarong'ilik qariga singib ketdi. Poezd qattiq chayqalib tormoz berdi. Yuqori o'rindiqdan plastik stakancha "po'k" etib, taom stoliga tushdi. Yarim kecha yoki erta SAhar bo'lgani uchun kupening ichi uncha ko'rinmasdi. Yo'lak ham jim-jit . Chiroqlar Bilan yoritilgan RAVOT degan yozuvli bekat o'tib ketdi. Oradan ko'p o'tmay yuqoridan birov qo'lini cho'zdi. To stakanchani olib bermaguncha turaverdi. Uchinchidagi nashavandlardan bo'lsa kerak deb uf tortib qo'ydim. Finjonni boshim uzra ikki minutcha ushlab turdim, qo'l egasi sira olay demasdi. Aftidan uhlab qolgan bo'lsa kerak.B "Kasofatlar qaydan ham uyg'otishdi, endi uyqum kelmaydi" . Sovuq tunda dildirab, hojatga borib kelishimni erinib uyladim. Ustimga kurtkamni ilib:

- manna stakaningiz, yoki suv ichasizmi, - dedim.

Yuqoridagilar yo mast, yo o'lguday qattiq uhlashardi. Poezd tormoz bilan chiyillab o'ng tomonga qayrila boshladi. Bir mAHal ikkinchi o'rindiqdagi odam ag'darila boshladi. Uni jon-jahDim Bilan ushlab, itardim. U temir sovut kiyib olganday qattiq edi.

"Hey,hey yiqilib tushasiz". Javob qayda qotib yotishardi. Temir yo'lovchini amallab joyiga yotqizdim-da, chiroqni yoqdim.

Yuqoridagi ikki o'rindiqda og'zi-burni bog'langan ikkita erkak yotardi. Bechoralar operatsiyadan chiqqanmikan. Barmoqlarimga yopishgan yelimli qag'oz shitirlab g'ashimga tegdi. Yoruqqa tutdim. "Soliev Otanazar. 1964 yil. Orol" deb yozilgan va tushunib bo'lmas muhr bosilgan edi. Ikkinchi o'rindiqdagi hamrohimga yaqinroq borib tikildim. Otanazarning bir ko'zi skochlangan, ikkinchi ko'zi chala yopishtirilganmi ochilib ketgan edi. Birdan dahshatga tushib ikkinchi o'rindiqqa qaradim. U yerda ozg'in yuziga, ataylabdan soqol yopishtirib qo'yilganday yigirma yigirma besh yoshlaridagi soqolli yigit yotardi. Uning ikkita ko'zi ham ochiq holda shiftga qarab turardi. Dafatan hech narsani anglamadim. Allaqaerlarda pravoz "vupillab" hayot borligidan darak berdi, Yana vagonlar taraqturuq etdi. . Sal tovush chiqarsam yotganlar ushlab oladiganday ko'zlarimni murdalardan uzmasdan eshikni ochdim. Engaki, oyoq-qo'li misoli bir go'dakday bog'lab tashlangan tanalar tobora tez chayqalardi. Tongi sovuq havo tanamga urilib birdan o'zimga keldim. "Ey, xudo ikkalasi ham ag'darilib tushsa nima bo'ladi". Atrof jim-jit, faqat bechora poezdgina hansirab oldinga yugurardi. B "onajon. . onajo" dahshat Bilan o'liklar xonasidan qochib chiqar ekanman necha qadam yurganimni bilmayman. Gursillab yiqildim. Boshim qaygadir tegdi, nazarimda hushimni yo'qotdim.

Yana qaerdadir yotibman, butun olam tebranadi, hansiraydi. Yon-verimdn kulgular, musiqaning sasi eshitar va yoqimli atir islari burnimga urardi. Atrofimda farishtalar ipak ko'ylaklarini shitirlatib, u yoq bu yoqqa o'tishardi. Endi hech qanday jasoralar ham kerak bo'lmay qoldi. O'liming muborak senga, Oysulton. Tug'ilgan yurtingga yetdim deganda yiqilibsan-da, Oysulton. Ovulingga baribir yetolmabsan-da. Ozodliging muborak bo'lsin.

Qulog'imga frishtalarning yoqimli saslarini urildi.

- Olimchik vagonda bir jinni Xotin bor. Hech joyga o'rnasholmaydi, faqat tinch joy izlaydi, degandi. Bu o'shav xotinmikan? - dedi sal dag'alroq ayol ovozi.

- Nega unday deysan, afti-angorini qara sira jini xotinga o'hshamaydi. Kiyimlarini qara, qimmatbaho, siynabandining o'zi o'n besh dollor turadi.

- Biz ham shu reysdan so'ng kiyinaylik Hosinima deding. O'lib ketsin bu pulni tanangga qo'shib hamma narsangni sotasan-da, qo'lingga mayda-chuyda tegadi. Olimning odamlariga ham xizmat qilasan, ham pulimizni oladi. Svolochlar.

- Narsalari bormikan?. Kissalarini qara-chi puli bormikan?. Kissasidan o'n ming dollor chiqsa-ya. Nima qilarding Ravi.

Xonaga bir oz jimlik cho'kib, aftidan Rovi deganini dardi ko'p shekilli, uzun hamuza tortadi. Poezd qari tuyaday chayqala-chayqala olg'a yuradi.

- Eng avvalo uy olardim. Alkash er Bilan yashash jonimga tegdi. Na hayotingda tinchlik, na yegan-ichganingda maza bor. Bolalarim Bilan tinch yashasam deyman.

Bir NASA shaqillaydi, so'ng sigaretni isi tarqaydi.

- Oh, Dubaydan kelganimdan so'ng allaqachon uy olgan bo'lardim. Nilu kelganidan so'ng vafot etdi-yu, shundan so'ng mentlar hitlanib qoldi. Hamma narsamizni musodara qilishdi.

- Qaysi Nilu anuv Sh kvartaldagimi?.

- Ha, shu borganidan so'ng o'zicha delovoylik qilib, mama Rozni aytganini qilmadi.

- U shu ishga olib ketishayotganini bilmabdimi?.

- Bilmaganda, vot masala gde?. O'lasam o'laman shu ishni qilmayman deb turib oldi. O'y. . daje ne xochu vspominat. Bechorani yomon qiynashgan.

Yana jimlik cho'kadi. Yo'lak jonlana boshlaydi. Aftidan tong ota boshlagan shekilliShu mAhal vagonga bomba tushganday "Gurs. . gurs" etib ketadi.

- Iya, nima bu Xosi. . Bilmasam Olimchikning yordamchisi uyqusirab ko'mir solaman deb somavarni ag'darib yubordi shekilli. Men "gursillash"ni nima ekanligini bilib yotardim. O'liklar kupesidagi Otanazar va uning sherigi nihoyat ag'anab tushgan edi. Chunki kechasi Bilan deraza yopiq turgani uchun jasadlar erigan va yumshab ag'anab tushishgan edi. Men gapirolmsdim, chunki hali yoqilganimga boshimga bir narsa bo'lganmi, na og'zimni va na ko'zimni ocha olardim.

Allaqaqanday qog'ozlar shildirab, "qars" etib sinadi va kupega kofening yoqimli hidi tarqaladi.

- Niluni nima qilishgan deysan, ol mazali funduklisi ekan- deydi Rovi yoki Hosi.

- Qish kunida vannaga Kir poroshogi solib o'tqizib qo'yishgan. Ikki uch kun o'tmay yotib qoldi. Toshkentga ham ko'tarib olib kelishgan.

- Voy bechora. . , - deydi Hosi choy shimirib.

- Nimasi bechora uni o'ldi ketdi, biz ro'zig'orimizni boqolmay, manavii- men hech narsani eshitmasdim. Lekin ikki kaftini bir-biriga "paq-paq" etib urilganini eshitdim. - anna shuni orqasidan yuribimiz jqilib.

Eshik shig'illab ochilib Olimning ovozi eshitildi.

- Voy, manavi sayh bu yoqqa qachon keldi?. Kim qo'ydi uni?, U kupega kiradi janjal qiladi. Bunisini xotini rashk qiladi. Yana biri "pingg. . gg" etib yel chiqaradi, deydi. .

- Nima deydi, nima deydi?.

- Pingg. . pingg. . - kupeni boshiga ko'tarib kulishadi.

Allaqaqaydan juda tanish ihragan-sihragan sas eshitiladi.

- Jon pravadnik uka. Umr bo'yi duongizni etay eltini tushirib qoldirmang. Uygacha yetib borsin, ahIr ikki soatgina yo'l qoldi. Bu SAhroning o'rtasida qayga boraman?.

- Buni qori aka, poezdga o'tirmasdan oldin o'ylashingiz kerak edi. Boyvuchcha o'g'lingiz Chimyonda chang'i uchguncha onasiga samolyotga bilet olib bersa bo'lmaydimi?.

- bahuzur. . bahuzur uka. . Endi man Azroil emasman. .

- Azroilning ham padariga ming lan'at. Uka. . pukangizni qo'ying. Bu Orolga boradigan passajir poezd, morg vagon emas. Mana bittasi morg kupeda yotib ne ahvolga tushdi?.

- Uka- aftidan qori Olimning cho'ntagiga pul tiqadi, lekin bizning vijdonli yo'lboшимiz qorining pulini qaytarib beradi.

- Boring, qori aka, boring. Buni o'zim hal qilolmayman. Uff. . Infark qiladi mani bular.

- Nima bo'ldi, jonim? - deydi erkalanib Rovi. - Vash bos udovletvorena.

- Ha. . ha. . Hozir ja shunga boshim qotadigan. Nima qilishimni bilmayman. O'zi shu chol kampir vagonga chiqqanda ko'nglim sezvudiya. Anna aytganimgiday bo'ldi, soppa-sog' kampir o'lib, qand kasal tog'lora-tog'ora ovqat yeydigan qori o'tiribdi "tirrillatib".

.

- Nu. .

- Nimasi nu. . 5dagi kampir o'lib qolibdi. Nuqul Orip, Orip dedi bechora joni sira chiqmaydi bechorani. Orifi degani chang'ichi hezalak o'g'li bo'lsa kerak.

- Bu Kim?. Yo'lakdan behush topdik?.

- E, Kim bo'lardi, bir jinni Xotin?. Tinch kupe izlab butun vagonni aylanib chiqdi. So'ng anavi sekret kupega yotqizdim. Ertalab hech narsani ko'rmasdan o'zim uyg'otarman desam, Yana ishkal qilib o'tiribdi.

- Olimchik, ayol kishini razve tak mojno. O'lib qoladi-yu. .

- Nima qilay o'zi hech joyda o'rnamshasa. Ishqilib bu ham o'lib netib qolmasa bo'ldi, agar shuday bo'lsa, nafaqagacha yetolmayman. Qamashadi meni. .

- Bu xotin qaysisini ko'rgan?.

- Baribirmasmi ikkalasini ham ko'rgan.

- Anovi Rossiyaga ishga borib o'lgan Otanazari ham yoshmidi?.

- Yosh, yosh. . Haligi kattakonning o'g'li Sardor degani, Indoneziyami, Tailanddami to'fonda suvga cho'kib o'ldi deganimchi. . O'shaning murdasi eski edi. Issiqda erib pastga tushib ketibdi. Bolang o'lgan ekan, gap-so'zdan qo'rqib nima qilasan. Uydagi kelin baribir bir kunmas bir kun eshitadi. . Kurortga o'ynashi bilan bormay, xotini bilan boradimi?. Mana bittasi yotibdi mani kuydirib..

- Da. . nu. . xotinlar o'lmaydi mani polvonim. Xotinlarning joni qattiq bo'ladi.

- Anna bittasi o'ldi-ku.

- A, u edi kampir. Olimchik iltimos. To'hta, to'hta Hosi shu vagondagi eng yahshi odam Kim. .

- aka Olimk.

- Poezda eng yaxshi odam Kim?.

- Aka. .

- Maqsad, maqsad? - deydi Olim kayfiyati o'zgarmay.

- Maqsad jonim iltimos, kampirni tushirmagin. Hammamiz bir kun o'lamiz. Shu kampir o'ldi deganingdan beri. . onam ko'z oldimga keladi. Hosi qachon ippodromdan bozor qilib keladi deb kutib o'tirgandir. Olimchik pajalusta. . - E, sanlarga nima,birovning onasi, birovning xotini. Mana yana bittasi tayyor bo'lib yotibdi. Yo xudotizzalarini "shap-shap" ettiradi. Poezdmi bu

